

OILADA ZO‘RAVONLIK

Latofat Toshmatova Muzaffar qizi*O‘zbekiston milliy universiteti 3-kurs talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada jamiyatning bir bo‘g‘ini bo‘lgan, ko‘rinishi oddiy, lekin murakkab jarayonlarni boshdan kechiradigan oilada zo‘ravonlikning kelib chiqish sabablari, shakllari va ularga yechim izlashni ko‘rib chiqamiz.*

Kalit so‘zlar: *oila, zo‘ravonlik, psixologik bosim, iqtisodiy, ma‘naviy, jismoniy tazyiq*

Kirish. Oila muqaddas maskan hamda jamiyatda o‘z mavqeiga ega. Insonni shaxs sifatida shakllantirib berishda, uni jamiyatga ijtimoiy moslashishini taminlash va o‘z o‘rnini topishida, mas‘ul bo‘lgan rollarini bajarishga tayyorlash va ko‘maklashishda oilani o‘rni beqiyos. Biroq barcha oilalarni farovon, baxtli, yetuk deb hisoblay olmaymiz. Har qanday oilalarda juda ko‘p muammolar mavjud. Oilaviy zo‘ravonlik kabi ijtimoiy muammoning yuzaga kelishi va keng tarqalishi shaxsning hayotiga tahdid, jinoyatchilikning ortishi, oiladagi zo‘ravonlikdan qutilish maqsadida uylarini tark etganlar, sog‘lig‘ini bir muncha va butunlay yo‘qotganlar hamda ishsiz shaxslarning sonining ko‘payishiga olib keladi.

Asosiy qism. Oiladagi zo‘ravonlik - oila sharoitida, masalan, nikoh yoki birgalikda yashashda sodir bo‘ladigan kuchli bosim va nazoratda takrorlanuvchi zo‘ravonlik oiladagi istalgan shaxsga - bolalar, ota-onalar yoki qariyalarga nisbatan zo‘ravonlik bo‘lishi mumkin. U bir nechta shakllarni o‘z ichiga oladi: jismoniy, ruhiy, iqtisodiy, diniy, jinsiy zo‘ravonlik kabi. “Oiladagi zo‘ravonlik” atamasining zamonaviy dunyoda birinchi marta qo‘llanilishi, ya‘ni uydagi zo‘ravonlik ma‘nosiga ega. 1973-yilda Jek Eshli Buyuk Britaniya parlamentiga qilgan murojaatida bo‘lgan. Ilgari bu atama asosan fuqarolik tartibsizliklari, ichki zo‘ravonliklarni nazarda tutgan. An’anaga ko‘ra, oiladagi zo‘ravonlik asosan jismoniy zo‘ravonlik bilan bog‘liq. Ayolni xo‘rlash, kaltaklash va kaltaklangan ayol kabi atamalar ishlatilgan. Oiladagi zo‘ravonlik endi keng ma‘noda oila a‘zosi yoki yaqin sherigi tomonidan sodir etilishi mumkin bo‘lgan “barcha jismoniy, jinsiy, psixologik yoki iqtisodiy zo‘ravonlik”ni o‘z ichiga oladi.

Qadim-qadimdan ayollarni kamsitish evaziga erkaklarning ustunligini namoyon qilish oddiy hol sifatida qabul qilingan. Hatto erkak tomonidan ayolning jazolanishi qonunan mustahkamlab qo‘yilgan. Ammo, XX asrning 70-yillariga kelib, oiladagi zo‘ravonlik masalasi muhokama va e‘tirozlarga sabab bo‘la boshlagan. Shunda ham gap faqat jismoniy zo‘ravonlik xususida borgan. Milliy xususiyatlarimizga ko‘ra, oiladagi holatni ommaga oshkor qilish uyatli hisoblanib, shu nuqtayi nazardan ham oilada bolalarga “uydagi gapni

ko‘chaga tashima”, deya tarbiya berishgan. Agar qizlar oila qurganidan keyin qandaydir muammo tug‘ilsa, “sen ayolsan, chida, chiqqan qiz chig‘iridan tashqarida bo‘ladi”, deya ularni taqdiriga ko‘nishga, salomatligini yo‘qotish evaziga chidashga chorlangan. Hozirgi zamonda, zo‘ravonlikning eng yuqori darajada bo‘lishi, nafaqat ayollar balki bolalar zo‘ravonlik qurboni bo‘lishi mumkin bo‘lgan holatlarda inson manfaatlari ustun jamiyatda bunga chidash mumkinmi?

Rossiyalik tadqiqotchi, Ye.P.Agapovning fikriga ko‘ra, “Oiladagi zo‘ravonlik yoki uydagi zo‘ravonlik – bu oila a‘zolarini jismoniy majburlash, shaxsiy erkinligini chegaralash kabi aktlarni sodir etish tahdidini kiritgan holda psixologik zarar yetkazish va azoblashdir. Ya‘ni zo‘ravonlik – bu inson ustidan chegaralanmagan hukmronlikka, boshqa odamning xulq-atvori, o‘y-fikrlari, tuyg‘ulari ustidan to‘liq nazoratga erishish vositasidagi harakatdir”.

Har qanday zo‘ravonlikning mohiyati – jabrlanuvchini, iloji boricha, kamsitish, uni shaxs sifatida tan olmaslik, chunki faqat shu yo‘l bilan zo‘ravonlik qilgan kishi o‘zini birmuncha o‘zini vaqt “ustun”, hotirjam his qilishi mumkin. Shuni ta‘kidlash kerakki, qonunga zid harakatlarni amalga oshirib, bunga qoniqmay zo‘ravonlikni ya‘na qayta va qayta takrorlanishi jabrlanuvchini stressga tushirib, o‘zini himoyalashga, yoki butunlay beparvo bo‘lib qolishiga, o‘zini tuttib berishiga ham olib keladi. Zo‘ravonlik (xususan, oilaviy zo‘ravonlik) faqat umumjahon tendensiyalarning aks etishi hisoblanadi. Hayotning qiyinchiliklariga bardosh bera olmasligi, ma‘naviy qoloqligi, stress, ijtimoiy jihatdan o‘rnini topmaganlik, oilaviy qadriyatlarning yo‘qolishi, alkogolizmning kuchayishi – bularning barchasi ko‘p jihatdan zo‘ravonlikning u yoki bu shaklining paydo bo‘lishi uchun qulay zamin yaratadi.

Barchamizga ma‘lum bo‘lganidek, zo‘ravonlik, nafaqat jismoniy, qo‘pol kuch emas, balki ta‘sirning yanada murakkab bo‘lgan ruhiy shakli hamdir. Oiladagi zo‘ravonlikning tarqalishi haqidagi sotsiologik ma‘lumotlar, aslida, haqiqatga to‘g‘ri kelmaydi va aniq baholanmaydi, chunki bu muammo kamdan-kam hollarda oiladan tashqariga olib chiqiladi. Bundan tashqari, oiladagi zo‘ravonlik ijtimoiy noqobil oilalardagina uchraydi, degan fikr butkul noto‘g‘ridir. Chunki bu muammo aholining barcha ijtimoiy qatlamlari uchun xos bo‘lib, ijtimoiy noqobil oilalardagi zo‘ravonlik holati ommaga ko‘proq oshkor bo‘ladi xolos.

Zo‘ravonlik bir necha shakllarga ajratiladi, jumladan:

1. Jismoniy zo‘ravonlik – og‘irligi turli darajadagi qasddan tan jarohatlari etkazish, xavf ostida qoldirish, hayoti xavf ostida qolgan shaxsga yordam ko‘rsatmaslik, zo‘ravonlik xususiyatiga ega boshqa huquqbuzarliklar sodir etish ya‘ni jismoniy zarar yetkazish; urush, bo‘g‘ish, tana a‘zolarini kesish, turli zararli moddalarni iste‘mol qilishga majburlash.

2. Jinsiy zo‘ravonlik – jinsiy daxlsizlikka va jinsiy erkinlikka tajovuz qiladigan zo‘ravonlik shakli, shuningdek zo‘rlik ishlatish yoki zo‘rlik ishlatish bilan tahdid qilish yoxud ayol jinsidagi voyaga etmagan shaxslarga nisbatan axloqsiz harakatlar sodir etish orqali uchinchi shaxs bilan jinsiy aloqa qilishga majburlash, inson tanasini qasddan jinsiy obyekt sifatida manipulyatsiya qilish; fohishabozlikka, pornobiznesga jalb qilish.

3. Psixologik (xulq-atvor, intellektual, emotsional va boshqa) zo‘ravonlik – shaxs (bola yoki kattalar)ni obyekt sifatida qasddan manipulyatsiya qilish, uning erkinligi,

qadr-qimmatini va huquqlarini ruhiy rivojlanishdagi buzilishlarga olib keladigan tarzda e’tiborsiz qoldirish, ya’ni haqoratlash, ularga tuhmat qilish, tahdid qilish, ularning sha’nini, qadr-qimmatini kamsitish, shuningdek ularning xohish-irodasini cheklashga qaratilgan boshqa harakatlarda ifodalanadigan zo‘ravonlik shakli, shu jumladan reproduktiv sohada nazorat qilish, tazyiq va zo‘ravonlikdan jabrlanuvchida o‘z xavfsizligi uchun xavotir uyg‘otgan, o‘zini himoya qila olmaslikka olib kelgan yoki ruhiy sog‘lig‘iga zarar etkazgan harakat.

4. Iqtisodiy zo‘ravonlik – bu oilaning moliyaviy va boshqa resurslarini nazorat qilish, jabrlanuvchiga “boqish” uchun pul ajratish, tovlamachilikka majburlash, ta’lim toki ish bilan ta’minlanishini taqiqlash, keskin vaziyatni yaratish uchun oilaviy mablag‘larni qasddan sovrish yoki ish joylarida va boshqa joylarda amalga oshirilgan zo‘ravonlik shakli, xotin-qizlarning normal yashash va kamol topish uchun oziq-ovqat, uy-joy hamda boshqa zarur shart-sharoitlar bilan ta’minlanishga bo‘lgan huquqini, mulk huquqini, ta’lim olish hamda mehnatga oid huquqini amalga oshirishni cheklashga olib keladigan harakatlar.

Zo‘ravonlik nafaqat oila balki jamiyat rivoji uchun ham xavflidir. Oilaviy zo‘ravonlikning yuzaga kelishining asosiy sabablari quyidagilar bo‘lishi mumkin:

- Qadriyat sifatida. Bilamizki, ko‘plab o‘zbek oilalarida erkak – oila boshi, asosiy boquvchi sifatida ulug‘lanadi. Bunday patriarxal tipdagi oilalarda ko‘pincha ayollar va bolalarga nisbatan jismoniy zo‘ravonlik oddiy hol sifatida qabul qilinadi;

- Ijtimoiy muhit – oila jamiyatning quyi qatlamiga mansubligi, alkohol yoki psixotrop moddalarga tobeligi, oila a’zolaridan birining kriminal guruhlariga kirib qolganligi;

- Iqtisodiy qaramlik – er-xotinlardan faqat bittasining mehnat faoliyati bilan bandligi, shubhasiz, bu bir partnyorning boshqasiga to‘liq moliyaviy tobeligiga sabab bo‘ladi. Bunda oila boshlig‘i, ya’ni erkakning mehnat migratsiyasiga chiqib ketishini ham aytib o‘tishimiz mumkin. Chunki ayol uyda bolalar tarbiyasi, uy yumushlari bilan band bo‘lganicha faqat turmush o‘rtog‘i yuboradigan mablag‘ga qaram bo‘lib qoladi;

- Huquqiy savodsizlik - garchi qonunchiligimizda oilaviy zo‘ravonlikdan himoyalash to‘g‘risidagi qonunlar mavjud, shuningdek, himoya orderini berish tizimi amaliyotga tatbiq

etilgan bo‘lsa-da, aholining katta qismi huquqiy jihatdan yetarlicha savodli bo‘lmaganligi bois, oilaviy zo‘ravonlik muammosiga yechim topishni bilmaydi.

- Ruhiy qaramlik – o‘zini nochor, ojiza deb bilish, hissiy qaramlik, haddan tashqari yaxshi ko‘rish, odamlarning gap so‘zi haqida ko‘proq o‘ylash va bu gap-so‘zlardan qo‘rqish.

Oiladagi zo‘ravonlikning oldini olish uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish lozim:

- mavjud stereotiplarni yo‘q qilish uchun aholi gavjum joylarda, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari binolarida uchrashuvlar uyushtirish, ijtimoiy tarmoqlarda qisqa metrajli filmlar

- aholining bu boradagi huquqiy savodxonligini oshirish yuzasidan barcha imkoniyatlar (OAV, ijtimoiy tarmoqlar)dan foydalanish;

- ilmiy-tadqiqot institutlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar asosida ommaga tushunarli, sodda tilda tayyorlangan uslubiy materiallarni tarqatish

- diniy soha vakillari bilan hamkorlikda tushuntirish, pand-nasihat usullarida oilalarga ma‘naviy ozuqa berish

- oila qurayotgan shaxslarga psixolog va huquqshunoslar tomonidan oila, oiladagi zo‘ravonlik haqida majburiy tushuntirish ishlarini tashkillashtirish

Xulosa. Oiladagi zo‘ravonlikning avlodlardan avlodga o‘tishining asosiy sababi – bu gender tarbiyaning to‘g‘ri olib borilmasligi, qizlarga “zaif qatlam” deb qaragancha, o‘g‘il bolalarga ustunlik berilishidir. Oiladagi zo‘ravonlik, avvalo, ijtimoiy muammolardan biri bo‘larkan, uni shaxsga qarshi jinoyatlarni bostirish va har bir oila a‘zosining fuqaro sifatida hayot xavfsizligi, erkinligi va qadr-qimmatini himoya qilish huquqini ta‘minlashga, shuningdek, ijtimoiy profilaktika qilishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlarni o‘z ichiga oluvchi murakkab muammo sifatida ko‘rib chiqish darkor. Xotin-qizlarni huquqiy savodxonligini oshirish, ularning jamiyatda o‘z o‘rinlariga egallashlari uchun ham huquqiy, ham diniy va dunyoviy bilimlarini o‘zlashtirishda, oilalarida tinch-totuv yashashlarini ta‘minlash zarur choralarni ko‘rish lozim. Zero, ayol nozik xilqat. Ayol jamiyatni tarbiyalaydi. U o‘z joyida xurmat, izzat topib, asrab-avaylansa farzandlari yetuk kamol topadi. Ma‘naviy sog‘lom farzand yurtimiz ko‘klarga ko‘taradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Oiladagi_zo‘ravonlik
2. <https://ijtimoiy.uz/2634/>
3. Агапов Е. П. Семейведение. – Москва: Изд-во “Дашков и К”, 2012.
4. Egamberdiyeva N., X. Abdusamatov, Madjidova D. Mehnat migratsiyasiga jo‘nab ketayotgan ota-onalar uchun tavsiyalar / Ilmiy-uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: “Mahalla va oila” nashriyoti, 2023.
5. Маджидова Д. А. Актуальные вопросы защиты многодетных и малообеспеченных семей и детей, нуждающихся в социальной защите. // Актуальные вопросы современной педагогики, 2013.
6. <https://gendermadad.uz/oz/document/2469>